



2-TOM, 6-SON

MOLIYA SIYOSATI VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

Norqulova Shahzoda

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada davlatning u yoki bu iqtisodiy va sotsial rivojlanish dasturini amalga oshirish uchun tegishli Moliyaviy resurslar bilan ta'minlashga qaratilgan davlatning Moliyaviy munosabatlar sohasidagi mustaqil faoliyati hisoblangan moliyaviy siyosat hamda moliya siyosatini to`laroq anglashga imkon beradigan uning tarkibiy tuzilishi ham batafsil yoritib berilgan.

Kalit so`zlar: Moliyaviy boshqaruv, byudjet transfertlari, kredit, davlat, byudjet daromadlari, oilaviy biznes, uy xo`jaligi, notijorat tashkilotlar, moliyaviy resurs, pul fondlari, moliyaviy kvotalar, foyda, bank depozitlari, jamg`arish, jamiyat, foiz stavkalari.

ФИНАНСОВАЯ ПОЛИТИКА И ЕЕ СТРУКТУРА

Аннотация: В данной статье подробно описана финансовая политика, которая представляет собой самостоятельную деятельность государства в сфере финансовых отношений, направленную на обеспечение соответствующих финансовых ресурсов для реализации той или иной программы экономического и социального развития государства, а также его структурная структура, позволяющая получить полное представление о финансовой политике.

Ключевые слова: Финансовый менеджмент, бюджетные трансферты, кредит, государство, доходы бюджета, семейный бизнес, домашнее хозяйство, некоммерческие организации, финансовые ресурсы, денежные средства, финансовые квоты, прибыль, банковские вклады, сбережения, общество, процентные ставки.

FINANCIAL POLICY AND ITS STRUCTURE

Abstract: This article describes in detail the financial policy, which is the independent activity of the state in the field of financial relations aimed at providing appropriate financial resources for the implementation of one or another economic and social development program of the state, as well as its structural structure, which allows a full understanding of the financial policy.

Key words: Financial management, budget transfers, credit, state, budget revenues, family business, household, non-profit organizations, financial resources, money funds, financial quotas, profit, bank deposits, savings, society, interest rates.



2-TOM, 6-SON

Davlat faoliyat olib borar ekan, demak, u turli xil siyosatni amalga oshiradi. Moliyaviy boshqaruvning barcha tizimi davlatning moliyaviy siyosatiga asoslanib faoliyat olib boradi. Shu sababli ham Moliyaviy siyosat Moliyaviy boshqaruv tizimining eng muhim element desak mubolag`a bo`lmaydi. Moliyaviy siyosat barcha jabhalarda amal qiladi. Jamiyatning yachevkasi hisoblangan oila ham iqtisodiy turmush tarsi sifatida, qolaversa oilaviy biznes shaklida iqtisodiy munosabatlarga kirishadi, oila byudjeti yoki oilaviy biznes byudjetini yuritadi, o`z o`zidan ravshanki, o`z doirasida moliyaviy siyosatga ega bo`ladi. Bundan ko`rinadiki, moliya siyosati deyarli barcha faoliyatlarda qo`llaniladi.

Moliyaviy siyosat bir vaqtning o`zida ijtimoiy faoliyatning har qanday sohasida davlat siyosatini amalga oshira oladi, negaki u o`zi mustaqil faoliyat olib boradi. Avvalambor, shuni ta`kidlash joizki, moliya siyosatini batafsil tushunib olishga yordam beradigan uning tarkibiy tuzilishiga e`tibor qaratishimiz kerak. Moliya siyosati ko`lamiga ko`ra quyidagicha guruhlanadi:

- ❖ Davlat miqyosidagi moliya siyosati
- ❖ Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar doirasidagi moliya siyosati
- ❖ Notijorat tashkilotlar doirasidagi moliya siyosati
- ❖ Uy xo`jaliklarining moliya siyosati

Davlat miqyosidagi moliya siyosati. Bu davlatning o`z ijtimoiy-iqtisodiy funksiyalarini bajarish uchun zarur bo`ladigan moliyaviy resurslar va mablag`larni o`zining turli darajadagi pul fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanish, ushbu fondlar va boshqa moliyaviy instrumentlar(moliyaviy kvotalar, foiz stavkalari, byudjet transfertlari, moliyaviy kvotalar, tashkilotlarning moliyaviy siyosatiga talablar orqali iqtisodiyotga ta`sir ko`rsatish iqtisodiyotni bir maromda borishini hamda uy xo`jaliklarida o`rtacha turmush tarzini ta`minlashga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni o`zida aks ettiradi. Markazlashgan pul fondlarini shakllantirish, daromad manbalarini aniqlash, bu daromadlarni markazlashgan pul fondlariga jalg qilish va ularni taqsimlash rejasini tuzish, uni ishga tushirish, moliyaviy instrumentlarni qo`llash orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va tartiblash uchun choralarini amalga oshirish, shuningdek, yo`nalishlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-nazariy jarayonlarni amalga oshirish kabi faoliyatlar davlat moliya siyosatining o`zagini tashkil qiladi.

Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar va notijorat tashkilotlar miqyosidagi moliya siyosati.

Xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning moliyaviy siyosati ularning tashkiliy-huquqiy shakli va nizoming mazmuni hamda moliyaviy qonunlar asosida belgilanadi. Agar korxona tashkiliy-huquqiy formasi jihatidan va nizomi bo`yicha faoliyati foyda olishga yo`naltirilmagan bo`lsa o`ziga xos moliyaviy siyosat, agar, uning faoliyati foyda olishga



2-TOM, 6-SON

qaratilgan bo`lsa, uning moliyaviy siyosati ham o`shanga bog`liq bo`ladi. Shuning uchun ham bunday doiradagi moliyaviy siyosatni ***foyda olishga qaratilgan moliyaviy siyosati va faoliyatni ta`minlashga qaratilgan moliyaviy siyosatga*** ajratish mumkin. Foyda olishga qaratilgan moliyaviy siyosat o`z-o`zidan tushunarli, ammo, faoliyatni ta`minlashga qaratilgan moliyaviy siyosat esa o`zlariga ma`lum davr oralig`ida notijorat(Nizomiga ko`ra foyda olishga mo`ljallanmagan) tashkilotlari tomonidan ularga zarur bo`ladigan moliyaviy resurslarga bo`lgan talabni tog`ri aniqlashtirib xarajat loyihibarini tuzish, ularni maqsadli va samarali foydalanishning yo`llarini o`ylab chiqish va amalga oshirish, qonun doirasidan chetlashmagan holda tadbirkorlik asosida qo`shimcha daromadlar olish, ortib qolgan pul mablag`larini bank depozitlariga qo`yish orqali foizli daromadlarga ega bo`lish va shu kabi yo`nalishdagoi maqsadli chora tadbirlardan iborat bo`ladi.

Uy xo`jaliklarining moliya siyosati. Uy xo`jaliklari bir tomonidan jamiyatning bir bo`g`ini bo`lsa, boshqa tomonidan esa iqtisodiyotda tovar va xizmatlarni iste`mol qilib, oilaviy biznes shaklida tadbirkorlik sub`ekti sifatida maydonga chiqadi. Demak, oilada daromadlar, xarajatlar, jamg`arish yoki qarzlar mablag`lari(masalan biron bir biznesni boshlash uchun kredit tashkilotlaridan kreditlar olish) jalb qilish jarayonlarini amalga oshiradi.

Xulosa qiladiga bo`lsak, har qanday jamiyatda davlat o`zining funksiya va vazifalarini bajarishda hamda maqsadlarini amalga oshirishda moliyadan foydalanadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda moliya siyosati katta o`rin egallaydi. Moliya siyosati u yoki bu ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning davlat rejasini yoki chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun moliyaviy resurslar bilan ta`minlaydi. Bundan tashqari moliya siyosati mustaqil xususiyatga ega bo`lish bilan bir qatorda davlatning har qanday istalgan faoliyatini amalga oshirish uchun xoh ijtimoiy, xoh iqtisodiy yoki xalqaro munosabatlar olib borishida muhim vositadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. [O`zbekiston milliy ensiklopediyasi](#) (2000-2005). O`zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich. Moliya va soliqlar. O`quv qo`llanma. Toshkent – 2020.
3. Yo`ldoshev.Z. Malikov.T. Uy xo`jaligi moliyasi. O`quv qo`llanma. T. “IQTISOD-MOLIYA”. 2008.
4. O`zbekiston respublikasi oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi mirzo ulug`bek nomidagi O`zbekiston milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti. «Moliya va soliqlar» ma`ruzalar kursi. Toshkent – 2012 yil.
5. Vahobov.A va boshqalar. Moliyaviy va boshqaruv tahlili. Darslik. T. Sharq. 2005-yil.
6. <https://prezi.com/p/eiwbaubqsilc/molivayi-siyosat/>.

